




SHUKUR XOLMIRZAYEV “DINOZAVR” ROMANIDA BADIY TASVIR VA MAHORAT

Qayumova Laylo Isokjon qizi

Termiz Davlat Pedagogika Instituti O'zbek tili
va adabiyoti yo'nalishi 1 kurs magistranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14750360>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 23-yanvar 2025 yil
Ma'qullandi: 25-yanvar 2025 yil
Nashr qilindi: 27-yanvar 2025 yil
*hukur Xolmirzayev, Surxon koloriti,
Dinozavr, obraz, inson ruhiyati,
badiiy mahorat.*

ABSTRACT

Shukur Xolmirzayev XX asr o'zbek adabiyotining taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan taniqli yozuvchidir. U o'zining yuksak badiiy mahorat bilan yaratgan asarlari bilan o'zbek xalqining qalbidan joy oldi. Sh. Xolmirzayev A. Qahhor, J. London, E. Xeminguey, S. Tompson kabi jahonning mashhur yozuvchilari qatorida bir qancha nodir asarlarni yaratdi. Ushbu maqolada Shukur Xolmirzayevning ijodida badiiy tasvir va badiiy mahoratni birlashtirgan holda insoniyatning eng murakkab, nozik va kengaygan his-tuyg'ularini ifodalashga muvaffaq bo'lganligi tadqiq etilgan.

O'zbekiston xalq yozuvchisi, Hamza nomidagi Respublika davlat mukofoti sovrindori, “Mehnat shuhrati” ordeni sohibi Shukur Xolmirzayev o'zining rang – barang ijodi bilan o'zbek adabiyotining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan zabardast adibdir. XX asr o'zbek nasrini Shukur Xolmirzayev ijodisiz tasavvur qilish qiyin.

Yozuvchi ijodida badiiy mahoratning yuksakligini uning asarlarida ko'rishimiz mumkin. Adibni boshqa yozuvchilardan ajratib turuvchi bir qirrasini, yani o'z asarlariga “Surxon koloritini – o'zi tug'ulib o'sgan Boysun tog'larining manzaralarini, surxondaryoliklar hayotini, udumlarini, betakror so'zlash tarzini - dialektini olib kirganligi bilan ajralib turadi”. Bu xususiyat ko'pincha yozuvchining hikoyalarida uchraydi. Ammo yozuvchi ijodida badiiy tasvirlarning sezilarli darajada xilma-xiligini uning romanlarida ham ko'rishimiz mumkin.

Adabiyotda badiiy tasvir tushunchasi muhim jihatlaridan biri bo'lib, u mohiyatni, hissiyotlarni va voqelikni tashkillashtiruvchi qobiliyatdir. Shukur Xolmirzayev asarlarida badiiy tasvir ko'plab qatlamlarga ega. U o'z romanlarida aks ettirgan qahramonlar, ijtimoiy voqealar, o'sha davr muhiti orqali o'quvchini o'z dunyosiga, asar ichiga tortadi. Misol uchun adibning “Dinozavr” romanida asar qahramonlarining xarakterini, o'sha davr muhitini, tabiat tasvirini o'zgacha tasvirlaydi. Yozuvchi qahramonlarni shunday tasvirlaydiki, kitobxon ularni yaqinda tanigandek his qiladi. Shukur Xolmirzayevning ijodida boshqalarda uchramaydigan yana bir qirrasini bu asarlarida hamisha tabiatni, hayvonlarni, o'simliklarni sevuchi qahramonning shakllanishidir. Ushbu “Dinozavr” romanidagi bosh qahramon Mahkam obrazi fikrimizning yaqqol misolidir. Shukur Xolmirzayevni o'qitish va fikrlashga undaydigan mahorat egasi deb ayta olamiz. Adibning badiiy mahorati nafaqat badiiy tasvirda, balki qahramonlarning ichki holatini ochib berishda ham namoyon bo'ladi. Yozuvchi qahramonlarning fikrlari, his-tuyg'ulari va xatti-harakatlarini chuqur o'rganadi. Chunki qahramonlarning shaxsiy fikrlari, orzu-istaklari, o'y-hayollari kitobxonni qiziqtiradi va o'ziga jalb qiladi. Shukur Xolmirzayev o'z

ijodida real hayot muammolarini yoritadi. Asarlardagi qahramonlar hayotidagi shaxsiy muammolar, oilaviy muhit, qahramonlar hayoli va aqli o'rtasidagi kurashlar hamisha kitobxonni o'ziga tortib turadi. Aynan "Dinozavr" romanida ham bu jarayonlarni yaqqol ko'rishimiz mumkin. Asar bosh qahramoni Mahkam jamiyatdagi turli o'zgarishlarga qaramasdan o'zligini saqlab qola olgan shaxs sifatida gavdalangan. Uning birgina oilasi bilan bo'lgan suhbatlarida ayoli Shahlo bilan munosabatlari yaxshi emasligini, bu holat ancha Mahkamning g'ashiga tegishini, shunga qaramasdan farzandi Sobit uchun, hamda bu holat vaqtlar o'tib, yana avvalgi holatga qaytishiga ishonardi. Bu kabi tasvirlar kitobxon o'quvchini hayot muammolarni anglashga va hayotning asl ma'nosini o'rganishga undaydi.

Shukur Xomirzayev o'z asarlarida kichik bir detallar va ularning turli xil ko'rinishlari orqali voqealar rivojini ko'rsatadi. Har bir qahramonni, har bir sahnani ehtiyotkorlik bilan rejalashtiradi. Unda ma'no va tasvir bir-birini to'ldirdi. Qahramonlarni, ular atrofidagi muhitni, tabiatni, o'sha davr voqealarini, o'zbek xalqiga xos bo'lgan urf-odatlarini juda chiroyli tasvirlaganligi asarlarni yanada jonli qiladi. Mahkamning shaxsiy fazilatlarini e'tiborimizni tortadi. Uning o'zbeklarga xos bo'lgan mardligi, oilaparvarligi, qo'rqqanligi, tabiatni, hayvonotni sevuvchanligi, mehribonligi kabi xislatlari kitobxonni o'ziga bog'lab qo'yadi. Adib tabiat tasvirini berarkan, u bilan birgalikda Mahkamni shahar odami bo'lsada undan halicha qishloq ishi ketmagan inson sifatida tasvirlaydi. Inson va tabiat tasvirlarini bir joyga birlashtirish orqali adib bir nechta hikmatlarni aytmoqchidek tuyuladi.

- tabiat insonga zavq, kuch quvvat berishini;
- tabiatni kuzatib, insonda yashashga bo'lgan shijoat, atrofga bo'lgan qiziqish ortishini;
- insoniyat tabiatsiz, hayvonlar olamisiz, o't-o'lanlarsiz xuddi toshdek qotib qolishini uqtiradi.

Ko'rinadiki, yozuvchi yaratgan qahramonlar tabiatga bevosita bog'lanib qolgan insonlardir. Shukur Xolmirzayev asarlaridagi tabiat o'zgacha bir dunyo bo'lsa, ulardagi qahramonlar o'zgacha dunyo insonlari edi. Ular hamisha ezgulikni xohlaydilar. Uning asarlarini o'qiganda adibning naqadar sodda, samimiy ekanligini anglaymiz. Balki asarlarini buqadar kitobxonlar qalbidan tez joy olishining sababi ham shu bo'lsa kerak.

Ummuman olganda, Shukur Xolmirzayevning badiiy tasviri va mahorati o'zbek adabiyotida alohida o'ringa ega. U o'z asarlari orqali inson ruhini, hayolot kurashlarini, va tabiat bilan bo'lgan ichki bog'liqligini kuchli tarzda ko'rsatadi. Shu bilan birgalikda uning asarlari nafaqat o'quvchilarni o'ziga tortadi, balki ularni fikrlashga, his qilishga undaydi. Shukur Xolmirzayev badiiy mahoratini mukammal tarzda birlashtirgan asarlari orqali o'zbek adabiyotida o'z o'rnini va ahamiyatiga ega adiblar biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xolmirzayev Sh. "Dinozavr". – Toshkent: Ziyo nashr, 2023
2. Qur'onov D. "Adabiyot nazariyasi asoslari". – Toshkent: Navoiy universiteti, 2018
3. www.ziyounet.uz